



## QURILISH ISHLARI 2019 yilning yanvar-dekabr oylarida

### Raqamlar:

Qurilish ishlari  
hajmi -  
**3419,0 mlrd.so'm**

Yirik pudrat  
tashkilotlari ulushi  
**5,3 %**

Kichik tashkilotlar  
va mikrofirmalar  
ulushi -  
**61,7 %**


Norasmiy sektor  
ulushi -  
**33,0 %**

2019 yilning yanvar-dekabr oylarida Namangan viloyatida jami 3419,0 mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish surati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 138,7 % ni tashkil etdi.

Jami qurilish ishlari hajmining yirik pudrat tashkilotlari tomonidan 180,2 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 5,3 % hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 114,8 % ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va tashkilotlar, mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 61,7 % yoki 2110,9 mlrd.so'mga to'g'ri kelib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 148,7 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektor hissasiga esa 33,0% yoki 1127,9 mlrd.so'mga to'g'ri kelib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 134,5 % ni tashkil etdi.




2019 yilning yanvar-dekabr oylarida Namangan viloyatida jami 3419,0 mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1161,4 mlrd.so'mga oshganligini ko'rishimiz mumkin.

2019 yil yanvar-dekabr oylarida yirik pudrat tashkilotlari tomonidan 180,2 mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4,8 mlrd.so'mga kamaydi.


Kichik korxonalar va tashkilotlar, mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari hajmi 2110,9 mlrd.so'mga to'g'ri keladi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 836,8mlrd.so'mga ko'paydi.

Norasmiy sektor hissasi 1127,9 mlrd. so'mga to'g'ri kelib o'tgan yilning mos davriga nisbatan 329,4 mlrd.so'mga ko'paydi.





## IQTISODIY FAOLIYAT TURLARI BO'YICHA QURILISH ISHLARI (mlrd.so'mda)




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi 2447,6 mlrd. so'mni tashkil etib o'tgan yilning mos davridagi nisbatan 862,3 mlrd.so'mga ko'paygan.

Fuqarolik qurilishi ob'ektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 333,1 mlrd.so'mni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 25,8 mlrd.so'mga ko'paygan.


Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi esa 638,3 mlrd.so'mni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 273,3 mlrd. so'mga ko'paygan.

### Yanvar -dekabr oyida qurilish ishlarining faoliyat turlari bo'yicha tarkibi



- Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Fuqorolik qurilishi ob'ektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

### Yanvar-dekabr oylarida qurilish ishlarining faoliyat turlari bo'yicha tarkibi




- Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Fuqorolik qurilishi ob'ektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi ulushi 1,0 % ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 5,9 % ga kamaydi. Bunda kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi 53,4 % (9,4 % ga ko'paydi) va norasmiy sektorning ulushi 45,6 % (3,1 % ga kamayish) ni tashkil etdi.


Fuqarolik qurilishi ob'ektlarini qurish ishlari bo'yicha yirik pudrat tashkilotlarining ulushi 43,2 % ni tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 23,8 % ga ko'paydi. Shuningdek, kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi 55,6 % ni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 18,0 % ga kamaydi. Norasmiy sektorning ulushi 1,2 % ni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 5,8 % ga kamaydi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi o'tgan yilga nisbatan 1,0 % punktga kamaydi va 3,0 % ni tashkil etdi. Qolgan 97,0 % kichik tashkilotlar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,0 % punktga ko'paydi.



## Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari

Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 3203,2 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining 93,7 foizini tashkil qildi va ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,2 foizga kamaydi.








## QURILISH ISHLARI HAJMI HUDUDLAR KESIMIDA



Yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining tumanlar bo'yicha tarkibida Namangan shaxri yetakchilik qilmoqda. Ushbu hududlarda bajarilgan qurilish ishlarining, 43,0 % i yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan.




Qurilish hajmining eng yuqori darajasi quyidagi hududlarda kuzatildi:

Namangan shahrida (821,1 mlrd.so'm yoki 152,9 %) - Namangan shahrida jismoniy shaxslar tomonidan yangi qurilgan, kadastr hujjatlari shakllantirilgan yakka tartibdagi turar joylar hamda maishiy hizmat ko'rsatish ob'ektlarini qurish ishlarini bajarilgan;

Uychi tumanida (341,2 mlrd.so'm yoki 146,1 %) - Uychi tumani hududida jismoniy shaxslar tomonidan yangi qurilgan turar joylar hamda kichik biznes sub'ektlari tomonidan issiqxonalar qurish hisobiga amalga oshirildi;

Kosonsoy tumanida (319,4 mlrd.so'm yoki 150,0 %) - Kosonsoy tumanida jismoniy shaxslar tomonidan yangi qurilgan turar joylar hamda kichik biznes sub'ektlari tomonidan bajarilgan ishlar hisobiga amalga oshirildi;






### Hududlar kesimida qurilish ishlari

№	Shahar tumanlar	2018 yil yanvar- dekabr <i>(mlrd,so'm)</i>	2019 yil yanvar- dekabr <i>(mlrd,so'm)</i>	O'tgan yilga nisbatan <i>(%)</i>	Jamiga nisbatan ulushi <i>(%)da</i>
<b>Viloyat bo'yicha jami:</b>		<b>2257,6</b>	<b>3419,0</b>	<b>138,7</b>	<b>100,0</b>
1	Namangan shahar	488,0	821,1	152,9	24,0
2	Mingbuloq tumani	98,9	158,9	148,1	4,6
3	Kosonsoy tumani	196,0	319,4	150,0	9,3
4	Namangan tumani	196,9	301,9	139,6	8,8
5	Norin tumani	100,0	141,3	130,8	4,1
6	Pop tumani	186,4	246,4	121,2	7,2
7	To'raqo'rg'on tumani	201,2	228,3	103,7	6,7
8	Uychi tumani	212,8	341,2	146,1	10,0
9	Uchqo'rg'on tumani	186,1	248,9	122,4	7,3
10	Chortoq tumani	137,7	215,3	144,6	6,4
11	Chust tumani	137,5	214,7	144,2	6,3
12	Yangiqo'rg'on tumani	116,1	181,6	144,4	5,3

### Hududlar kesimida qurilish ishlari

Hududlar kesimida qurilish ishlari hajmini salmoqli hissasi quyidagi shahar va tumanlarda kuzatildi, Xususan, Namangan shahri 821,1 mlrd,so'm qurilish ishlari bajarilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 52,9 % ga o'sdi, Kosonsoy tumanida 319,4 mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 50,0 % ga o'sdi, Pop tumanida 246,4 mlrd.so'mlik


qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 21,2 % ga o'sdi, Uychi tumanida 341,2 mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 46,1 % ga o'sdi. Chust tumanida 214,7 mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 44,2 % ga o'sdi, Chortoq tumanida 215,3 mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 44,6 % ga o'sdi.



Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlarining katta qismi Namangan shahrida bajarilgan bo'lib, viloyatda bajarilgan jami qurilish ishlarining 24,0 % ni tashkil etdi, Namangan tumanida 8,8 % ni tashkil etdi, Uychi tumanida bajarilgan qurilish ishlari esa 10,0 % ni tashkil etdi.

Viloyatda amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi bo'yicha past ko'rsatkichlar: Norin tumanida ushbu ko'rsatkich 4,1% ni Mingbuloq tumanida bu ko'rsatkich eng past 4,6 % ni tashkil etdi. Shuningdek, Yangiqo'rg'on tumanida 5,3% ni tashkil etganligini kuzatishimiz mumkin.

**2019 yilning yanvar-dekabr oylarida qurilish ishlarining  
umumiy hajmda hududlarning ulushi**  
(umumiy hajmga nisbatan %da)



Qurilish ishlari mavsumining boshlanishi bilan hududlarda bajariladigan qurilish ishlarining hajmi ortib, ularning viloyatdagi ulushi ham o`zgarib boradi.



**Namangan viloyat statistika boshqarmasi  
Investitsiya va qurilish statistikasi  
bo'limi**  
Aloqa telefoni: (71) 230-84-85